

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
KARIMOV E. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOVA K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:
Qog'oz bichimi: - 60x84 1/8
Bosma tabog'i:
Ofset bosma: Ofset qog'ozi.
Adadi: 10 nusxa
Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Farg'ona,
2022.

T.Egamberdiyeva Qiz bolalarda ijtimoiy faol shaxs sifatlarini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari	7
R.Safarova, M.Abdullayev Etnopedagogik qadriyatlar vositasida o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish usullari va metodlari	11
J.Obidov Talabalarda texnologik determinizm konsepsiyasiga oid bilimlarini takomillashtirishning pedagogik mazmuni va amaliyotdagi holati	16
F.Madraximova Ta'limni axborotlashtirish sharoitida talabalarda mediasavodxonlikni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida	21
X.Tojiboyeva O'smir yoshdagi o'quvchilarda gender o'z-o'zini anglash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	26
IQTISODIYOT	
M.Yuldasheva, A.Kolkanatov Oilaviy dam olish madaniyatini rivojlantirishda ijtimoiy va madaniy marketing	29
S.Ismoilova Budjet mablag'laridan foydalanishning samaradorligini ifodalaydigan ko'rsatkichlar tizimi	34
FALSAFA, SIYOSAT	
A.Yuldashov Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar himoyasini ta'minlashda mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarning tutgan o'рни	39
D.Raxmatova Qatag'onlik siyosatining aholi ijtimoiy-ma'naviy hayotiga salbiy ta'siri (xx asrning 40-50 yillar misolida)	47
TARIX	
B.Matboboyev, A.Aloxunov Farg'ona vodiysida ilk urbanizatsiya jarayonlari	53
S.To'raxo'jayev Sovet hokimiyati tomonidan Turkiston ASSR da amalga oshirilgan bolalar evakuatsiyasi va reevakuatsiyasi tarixidan	58
R.Ahmedov Turkiston ASSRda savodsizlikni tugatish bo'yicha dastlabki chora-tadbirlarning yo'lga qo'yilishi (1918-1922-yillar)	63
Sh.Jumayev Farg'ona viloyatidagi katolik jamoalarining faoliyati: tarix va bugungi kun	70
I.Xo'jaxonov Amir Temur davri shaharsozligida turli o'zliklarning namoyon bo'lishi	74
A.Sarsenbayev, N.Turambetov Yevropada islom huquqi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar tahlili (XVIII-XXI)	78
R.Akbarov Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek milliy matbuoti sahifalarida mahalliy resurslardan foydalanish masalasi	85
R.Murodaliyev So'ngak mozor-qo'rg'onining davrlashtirilishi haqida	92
N.Turambetov Yozef shaxt - islom huquqshunosligi bo'yicha taniqli yevropalik sharqshunos olim	98
X.Ergasheva 1917-1924 yillarda Farg'ona vodiysida neft sanoati tarixi	103
Sh.Xonimov Yoshlar ijtimoiy faolligi va dunyoqarashi shakllanishiga globallashtirish jarayonlarining ta'siri	109

**BUDJET MABLAG'LARIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGINI
IFODALAYDIGAN KO'RSATKICHLAR TIZIMI****СИСТЕМА ПОКАЗАТЕЛЕЙ, ХАРАКТЕРИЗУЮЩИХ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ
СРЕДСТВ БЮДЖЕТА****SYSTEM OF INDICATORS CHARACTERIZING THE EFFICIENCY OF THE USE OF
BUDGET FUNDS****Исмоилова Санобархон Якубовна¹****¹Исмоилова Санобархон Якубовна**

- Farg'ona davlat universiteti iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya

Byudjet mablag'larining sarflanishi masalasiga jamiyatning har bir a'zosi o'z mablag'larining sarflashga nisbatan qanday munosabatda bo'lsa, shunday munosabatda bo'lish zarur. Afsuski, hozirgi kunda byudjet mablag'laridan foydalanishga nisbatan qonun buzilish holatlarining bir necha barobarga oshganligi va buning natijasida bir necha yuzlab milliard so'mlik mablag'larning samarasiz sarflanganligi tashvishli holdir.

Maqolada byudjet mablag'larini sarflanishidagi qonun buzilish holatlari bilan bog'liq faktlar va ushbu mablag'lardan foydalanishning samaradorligini xarakterlaydigan ko'rsatkichlar tizimi taklif qilingan.

Аннотация

К вопросу о расходах бюджетных средств следует относиться также, как каждый член общества относится к расходованию собственных средств. К сожалению, настораживает тот факт, что нарушается законодательство об использовании бюджетных средств, и в результате чего миллиардные суммы расходуются неэффективно.

В статье показывается факт нарушения и расходования бюджетных средств и системы, а также характеризует эффективность использования этических средств.

Abstract

The issue of spending budgetary funds should be treated in the same way as each member of society relates to spending their own funds. Unfortunately, it is alarming that the number of violations of the law on the use of budgetary funds has increased several times, as a result of which hundreds of billions of soums were spent inefficiently.

The article proposes facts of violations in the spending of budgetary funds and a system of indicators that characterizes the effectiveness of the use of these funds.

Kalit so'zlar: davlat byudjeti, mahalliy byudjet, byudjet mablag'lari, moliyaviy nazorat, kamomad, o'zlashtirish, xarajatlar, noqonuniy o'zlashtirishlar, moddiy boyliklar kamomadi, qayta tiklangan mablag'lar, aniqlangan moliyaviy xatoliklar, noqonuniy xarajatlar, ortiqcha to'lovlar.

Ключевые слова: государственный бюджет, местный бюджет, бюджетные средства, финансовый контроль, дефицит, незаконное присвоение, расходование, материальный дефицит, взыскание средств, выявление финансовых ошибок, незаконные расходы, переплата.

Key words: state budget, local budget, budgetary funds, financial control, deficit, misappropriation, spending, material deficit, recovered funds, identified financial errors, illegal expenses, overpayments.

Kirish.

Byudjet mablag'larining sarflanishi masalasiga befarq qarashga hech kimning haqqi yo'q. Zero, bu o'rinda gap, aslida, soliq to'lovchilarning mablag'lari hisobidan byudjetda shakllantirilgan mablag'larning qanday sarflanayotganligi xususida ketmoqda. Buning ustiga, gap bu o'rinlarda juda katta miqdordagi mablag'larning qanday sarflanishi kerakligi to'g'risida ketmoqda. Misol uchun, mamlakatimiz kesimida olib qaraydigan bo'lsak, Davlat moliyaviy nazorati departamenti va uning hududiy boshqarmalari tomonidan aniqlanishicha 2021-yilning 9 oyida byudjet intizomiga rioya etilishi va byudjet mablag'larning maqsadli foydalanilishi yuzasidan o'tkazilgan nazorat tadbirlarida aniqlangan kamomad va o'zlashtirishlar 83,7 mlrd.so'mni, byudjet mablag'laridan asossiz va ortiqcha to'lovlar 457,7 mlrd.so'mni va maqsadsiz xarajatlar 187,3 mlrd.so'mni tashkil etadi. Joriy yilning hisobot davrida aniqlangan pul mablag'lari va moddiy boyliklarning kamomadi hamda noqonuniy o'zlashtirish holatlari (83,7 mlrd.so'm) 2020-yilning 9 oyiga (28 mlrd.so'm) nisbatan 3 martaga oshgan.

1-jadval

IQTISODIYOT

Vazirlik va idoralar bo'yicha pul mablag'lari va moddiy boyliklarning kamomadi hamda noqonuniy o'zlashtirish holatlari dinamikasi

No	Vazirlik va qo'mitalar	2020-yil 9 oyida	2021-yil 9 oyida
1	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi	13 mln.so'm	23,3 mlrd.so'm
2	Sog'liqni saqlash vazirligi	3,9 mlrd.so'm	17,2 mlrd.so'm
3	Xalq ta'limi vazirligi	15,4 mlrd.so'm	14,4 mlrd.so'm
4	Maktabgacha ta'lim vazirligi	3,8 mlrd.so'm	5,7 mlrd.so'm
5	Madaniyat vazirligi	1 mlrd.so'm	2,7 mlrd.so'm
6	Turizm va sport vazirligi	0,4 mlrd.so'm	1,7 mlrd.so'm
7	Avtomobil yo'llari qo'mitasi	2 mln.so'm	4,2 mlrd.so'm
8	O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi	0,4 mlrd.so'm	2,2 mlrd.so'm
9	Hokimliklarning obodonlashtirish boshqarmalari	1 mlrd.so'm	2,5 mlrd.so'm

Manba: ochiq byudjet portali ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan kelib chiqadigan umumiy xulosani, qisqacha, quyidagicha ifodalashimiz mumkin: a) mamlakatimiz miqyosida katta miqdordagi byudjet mablag'larining sarflanishiga to'g'ri kelmoqda; b) amaliyot bu mablag'lar bir qismining samarasiz sarflanayotganligi ko'rsatmoqda; v) byudjet mablag'larining sarflanishida har yili uzluksiz ravishda moliyaviy xatoliklarga yo'l qo'yilmoqda hamda buning natijasida pul mablag'lari va moddiy boyliklarning kamomadi vujudga kelmoqda va o'zlashtirishlar sodir bo'lmoqda, shuningdek, noqonuniy xarajat va ortiqcha to'lovlarga ham yo'l qo'yilmoqda; g) ularning bari byudjet mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlash yo'nalishida keskin choralarning ko'rilishini taqozo etmoqda.

Shuning uchun ham, bugungi kunda Prezidentimiz tomonidan vazifa "...byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishini ta'minlash zarur" tarzida qo'yilayotganligi bejiz emas, albatta. Bizningcha, mamlakat miqyosida vazifa bu tarzda qo'yilishining kamida ikki sababi bor. Uning birinchisi, mamlakatimiz amaliyotida byudjet mablag'laridan foydalanish tartib-qoidalari yoki prinsiplariga yetarli darajada va qat'iy rioya etilmayotganligi bo'lsa, ikkinchisi shu jarayonda band bo'lgan shaxslarning bu mablag'lardan foydalanish borasidagi mas'uliyat va javobgarlikni xuddi shunday darajada his etmayotganligidir.

ASOSIY QISM.

Hozirgi sharoitda va yaqin istiqbolda budjet mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlash uchun nima qilish kerak, degan savolning kun tartibiga qo'yilishi tabiiy, albatta. Fikrimizcha, yuqorida amalga oshirilgan tahlil natijalari, ularga asoslanib turib chiqarilgan mantiqiy xulosalar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning bu boradagi ilg'or tajribalari o'rganish va h.k.zolar bu yo'nalishda, jumladan, qo'yidagi chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularni uzil-kesil amaliyotga joriy etishni taqozo etadi:

1. Byudjet mablag'laridan foydalanish tartib-qoidalari yoki prinsiplariga qat'iy rioya etish va ularning amaliyotga to'liq qo'llanilishiga erishish.

Bizning fikrimizcha, byudjet mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlashning eng katta zaxirasi, eng avvalo, aynan ana shu yerda joylashgan. Agar, boshqa sharoitlar teng bo'lgan taqdirda, amalda byudjet mablag'laridan foydalanish tartib-qoidalari yoki prinsiplariga qat'iy rioya etish 100,0%ga ta'minlansa, bu mablag'larning samarali foydalanilishini ta'minlash muammosi barham topadi. Biroq, mamlakatimiz amaliyotida buning aynan shunday ekanligiga ishonuvchilar (byudjetdan mablag' ajratuvchilarda va budjetdan mablag' oluvchilarda ham), afsuski, ko'p emas. Shuning uchun ham amaliyotda ularning o'rni sezilmaydi va ularni har qadamda inkor etish hollari sodir bo'laveradi. Buning natijasi esa, oxir oqibatda, byudjet mablag'lari ma'lum bir qismining samarasiz (moliyaviy xatoliklarga yo'l qo'yish, pul mablag'lari va moddiy boyliklarning kamomadi va o'zlashtirishlarning sodir bo'lishi, shuningdek, noqonuniy xarajat va ortiqcha to'lovlarning amalga oshirilishi va h.k.) sarflanishiga olib keladi.

Shuning uchun, bu yo'nalishda qilinishi lozim bo'lgan ishlarning dastlabkisi, bizningcha, har ikki tomondagilarda (byudjetdan mablag' ajratuvchilar va byudjetdan mablag' oluvchilar) byudjet mablag'laridan foydalanish tartib-qoidalari yoki prinsiplariga nisbatan munosabatni ijobiy tomonga keskin o'zgartirish bo'lishi kerak. Ikkala tomondagilar ham o'sha tartib-qoidalar yoki prinsiplarning har bir buzilish holati, albatta, byudjet mablag'larining samarasiz sarflanishiga olib kelishi mumkinligiga ishonch hosil qilishi va shuning uchun ham unga qarshi harakat qilishi lozim.

Xalqaro tajribaning ko'rsatishicha ham, agar amaliyotda o'rnatilgan tartib-qoida yoki prinsiplarga qat'iy rioya etilmas ekan, byudjet mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlash muammosi hamon hal etilmasdan qolaveradi.

2. Byudjet mablag'larining samarali sarflanishini ta'minlash jarayonida byudjetdan mablag' ajratuvchilar va byudjetdan mablag' oluvchilarning mas'uliyati va moliyaviy javobgarligini keskin oshirish.

Bir necha yillik amaliy ma'lumotlarning batafsil o'rganilib chiqilishi, bu yo'nalishda mamlakatimiz amaliyotida tarkib topgan vaziyat va h.k.lar byudjet mablag'larining samarali sarflanishini ta'minlash muammosini shu jarayonda bevosita ishtirok etayotgan shaxslarning mas'uliyati va moliyaviy javobgarligini keskin oshirmasdan iloji yo'qligini ko'rsatmoqda. Bu yo'nalishdagi mas'uliyat va javobgarlikning darajasi shu ahvoldaki, hatto keyingi bir necha yillik ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida ham budjet mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlashga nisbatan biror-bir tendensiyani aniqlashning iloji yo'q. Shu munosabat bilan, bizningcha, ushbu holatni tartibga solib turuvchi huquqiy-meyoriy hujjatlarga tegishli o'zgartirishlarni kiritish maqsadga muvofiq. Bu narsa ko'proq huquqiy jihat kasb etganligi uchun biz bu o'rinda, qisqacha, quyidagini qayd etish bilan cheklanamiz, xolos: byudjet mablag'laridan samarali foydalanish borasida yo'l qo'ygan xatoliklari uchun tegishli aniq shaxslarning moliyaviy javobgarligi ular sezilarli darajada his qiladigan miqdorda bo'lishi kerak (misol uchun, hozirgisiga nisbatan bir necha barobar yuqori darajada). Ularning miqdori shu darajada ta'sirchan bo'lishi kerakki, tegishli shaxs navbatdagi marta byudjet mablag'larini noqonuniy, maqsadsiz va samarasiz tarzda sarflashga urinmasin yoki harakat qilmasin.

3. Byudjet mablag'larining maqsadli va oqilona sarflanishi ustidan nazoratni yanada kuchaytirish.

Hayot va amaliyot obyektiv realligi shundan iboratki, hozirgi O'zbekiston sharoitida, afsuski, byudjet mablag'larini samarali sarflanishini ta'minlash muammosini, hozircha, byudjet mablag'larining maqsadli va oqilona sarflanishi ustidan nazoratni yanada kuchaytirishsiz hal qilishning iloji yo'q.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yiliga milliardlab byudjet mablag'larni sarflashda moliyaviy xatoliklarga yo'l qo'yilayotganligining asosiy sababi ham ana shu yuqoridagi ikki holat bilan belgilanadi, nazarimizda. Bu narsa yildan-yilga uzluksiz ravishda davom etib kelayotgan ekan, bunday sharoitda muammoni hal etish yoki uni oldini olishning asosiy yo'llaridan biri sifatida, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, byudjet mablag'larining maqsadli va oqilona sarflanishi ustidan nazoratni yanada kuchaytirish qoladi, xolos.

Aslida shunday bo'lsa-da, lekin bunday sharoitda har qanday nazoratning va shu jumladan, byudjet mablag'larining maqsadli va oqilona sarflanishini ta'minlash ustidan nazoratni yanada kuchaytirilishini bu jarayon ishtirokchilari (byudjetdan mablag' ajratuvchilar va undan mablag' oluvchilar) tabiiy ravishda qabul qilmaydilar. Ularning o'ziga xos e'tirozlari (ishga xalaqit berish, bo'lar-bo'lmasga aralashish hollari, erkinlik berilmasligi, mustaqilligiga aralashuv va h.k.zolar) ham bo'lishi mumkin. Shu munosabat bilan quyidagi fikrimizni qayd etmoqchimiz: byudjet mablag'larining maqsadli va oqilona sarflanishi ustidan nazoratning yanada kuchaytirilishini istamaydiganlar budjet mablag'larining moliyaviy xatoliklarsiz qonuniy, maqsadli, oqilona va samarali sarflanishiga erishishlari kerak. O'shanda nazoratning kuchaytirilishiga xojat qolmaydi.

Nazarimizda, hozirgi real vaziyatdan kelib chiqib, mahalliy byudjetlar mablag'laridan qanchalik samarasiz foydalanganligini ko'rsatuvchi ko'rsatkichlar sifatida quyidagilarni taklif qilish mumkin:

1. Aniqlangan moliyaviy xatoliklar summasiga nisbatan mahalliy byudjet xarajatlarining samarasiz sarflanish darajasini aniqlash. Buni aniqlash uchun ma'lum bir davr uchun aniqlangan moliyaviy xatoliklar summasini o'sha davrga tegishli bo'lgan mahalliy byudjet xarajatlari summasiga bo'lish kerak. Buni formula sifatida quyidagicha ifodalash mumkin:

$$MBX_{cc0}1 = \frac{AMX_c}{MBX_{yc}} \cdot 100 \quad (1)$$

Bu yerda: $MBX_{cc0}1$ - aniqlangan moliyaviy xatoliklar summasiga nisbatan mahalliy budjet xarajatlarining samarasiz sarflanish darajasi, %da;

AMX_c - aniqlangan moliyaviy xatoliklar summasi;

MBX_{yc} - mahalliy byudjet xarajatlarining umumiy summasi.

IQTISODIYOT

2. Pul mablag'lari va moddiy boyliklar kamomadi va o'zlashtirishlarning aniqlangan summasiga nisbatan mahalliy byudjet xarajatlarining samarasiz sarflanish darajasini aniqlash. Buning uchun ma'lum bir davr uchun aniqlangan moliyaviy xatoliklar summasi tarkibidagi pul mablag'lari va moddiy boyliklar kamomadi va o'zlashtirishlar summasini o'sha davrga tegishli bo'lgan mahalliy budjet xarajatlari summasiga bo'lish lozim. Bizningcha, buni formula ko'rinishida quyidagicha ifodalasa bo'ladi:

$$MBX_{cc\delta} 2 = \frac{ПМ_{\text{ea}} MBK_{\text{ea}} \check{Y}}{MBX_{yc}} \cdot 100 \quad (2)$$

Bu yerda: $MBX_{cc\delta} 2$ - aniqlangan pul mablag'lari va moddiy boyliklar kamomadi va o'zlashtirishlar summasiga nisbatan mahalliy byudjet xarajatlarining samarasiz sarflanish darajasi, %da;

$ПМ_{\text{ea}} MBK_{\text{ea}} \check{Y}$ - pul mablag'lari va moddiy boyliklar kamomadi va o'zlashtirishlar summasi;

MBX_{yc} - mahalliy byudjet xarajatlarining umumiy summasi.

3. Aniqlangan noqonuniy xarajat va ortiqcha to'lovlar summasiga nisbatan mahalliy byudjet xarajatlarining samarasiz sarflanish darajasini aniqlash. Xuddi yuqoridagi tartibda buning uchun ham aniqlangan moliyaviy xatoliklar tarkibidagi noqonuniy xarajat va ortiqcha to'lovlar summasini o'sha davrga tegishli bo'lgan mahalliy budjet xarajatlari summasiga bo'lish lozim. Fikrimizcha, buni ham formula ko'rinishida quyidagicha ifodalashning iloji bor:

$$MBX_{cc\delta} 3 = \frac{HX_{\text{ea}} OT_c}{MBX_{yc}} \cdot 100 \quad (3)$$

Bu yerda: $MBX_{cc\delta} 3$ - aniqlangan noqonuniy xarajat va ortiqcha to'lovlar summasiga nisbatan mahalliy byudjet xarajatlarining samarasiz sarflanish darajasi, %da;

$HX_{\text{ea}} OT_c$ - aniqlangan noqonuniy xarajat va ortiqcha to'lovlar summasi;

MBX_{yc} - mahalliy byudjet xarajatlarining umumiy summasi.

4. Aniqlangan moliyaviy xatoliklar summasining byudjetga qayta tiklanish ko'rsatkichi. Haqiqatdan ham amaliyotning ko'rsatishicha, aniqlangan moliyaviy xatoliklarning ma'lum bir qismi tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida mahalliy budjetlar ixtiyoriga qaytarilmoqda va ularning hisobotda "Tiklangan mablag'lar" nomi bilan aks ettirilmoqda. Bizning fikrimizcha, mahalliy byudjet ixtiyoriga qayta tiklangan bu mablag'larning miqdori tegishli nazorat organlari faoliyatining samaradorlik darajasini aniqlash (baholash)ga xizmat qilishi mumkin. Shuning uchun buni e'tiborga olgan holda ushbu yo'nalishdagi navbatdagi ko'rsatkichni taklif qilish va uni hisoblashda foydalanish maqsadga muvofiq. Bir paytning o'zida ushbu ko'rsatkichning darajasini quyidagi uch variantda aniqlash o'zining ma'nosiga ega:

a) tiklangan mablag'larning mahalliy byudjet xarajatlarining umumiy summasiga nisbatan aniqlanadigan ko'rsatkichi;

b) tiklangan mablag'larning aniqlangan moliyaviy xatoliklar summasiga nisbatan aniqlanadigan ko'rsatkichi;

c) tiklanmagan mablag'larning aniqlangan moliyaviy xatoliklar summasiga nisbatan aniqlanadigan ko'rsatkichi.

Yuqoridagi har bir uch ko'rsatkichlarni formula ko'rinishida, fikrimizcha, quyidagicha ifodalash mumkin:

$$MBX_{mm} = \frac{TM_c}{MBX_{yc}} \cdot 100 \quad (4.1)$$

Bu yerda: MBX_{mm} - tiklangan moablag'larga ko'ra mahalliy byudjetlar xarajatlarining samarasiz sarflanganligi, %da;

TM_c - tiklangan mablag'lar summasi;

MBX_{yc} - mahalliy byudjet xarajatlarining umumiy summasi.

$$AMX_{m\delta} = \frac{TM_c}{AMX_c} \cdot 100 \quad (4.2)$$

Bu yerda: $AMX_{m\delta}$ - aniqlangan moliyaviy xatoliklarning tiklanish darajasi, %da;

TM_c - byudjetga qayta tiklangan mablag'lar summasi;

AMX_c - aniqlangan moliyaviy xatoliklar summasi.

$$AMXT\mathcal{D} = 100\% - AMX_{m\delta} \quad (4.3)$$

Bu yerda: $AMXT\mathcal{D}$ - aniqlangan moliyaviy xatoliklarning tiklanmaganlik darajasi, % da;

$AMX_{m\delta}$ - aniqlangan moliyaviy xatoliklarning tiklanish darajasi, %da.

Xulosa qilib aytganda, amaliyotda byudjet xarajatlarining samarali sarflanishini to'liq ta'minlashning iloji bo'lmayapti. Buning ko'plab subyektiv sabablari bo'lishiga qaramasdan bu yo'nalishdagi asosiy muammo byudjetdan moliyalashtirish prinsiplariga qat'iy rioya etilmayotganligiga borib taqaladi. Byudjet xarajatlarining samarali sarflanishini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar, bir tomondan, byudjetdan mablag' ajratuvchilar va ikkinchi tomondan esa, byudjetdan mablag' oluvchilarning xatti-harakatlari bilan bog'liq. Shu sababli har ikki tomonning mahalliy byudjet mablag'laridan foydalanish bo'yicha mas'uliyati va javobgarligini keskin oshirmasdan turib ko'zlangan maqsadga erishishning iloji bo'lmaydi.

Eng umumiy ko'rinishda, amaliyotda moliyaviy xatoliklarga yo'l qo'yilib, byudjet mablag'larining ma'lum bir qismi samarasiz sarflanayapti. Bu unda doimo shunday sodir bo'lish ko'rinishini olmoqda. Buning oldini olish uchun faqat ularni byudjetga qayta tiklash amaliyoti bilan cheklanishning o'zi yetarli emas. Ko'zlangan maqsadga erishishda byudjetga qayta tiklangan mablag'lar summasiga nisbatan bu mablag'lar byudjetga qayta tiklangan kunga qadar tegishli foiz stavkasini qo'llash maqsadga muvofiq. Ularning vaqtincha tiklanmagan qismiga nisbatan esa oshirilgan foiz stavkalarini qo'llash amaliyotini joriy etish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Ismoilova, S. Y. (2020). FINANCIAL CONTROL OVER THE LOCAL BUDGET FUNDS AND ASSESSMENT OF ITS EFFECTIVE USAGE. *Ekonomika: analizi i prognozi*, (7-8), 69-73.
2. Jasurbek, T., & Sanobar, I. (2015). Development of Family Business Management: Cases of Japan and Uzbekistan.
3. Ismoilova, S. Y. (2020). BUDJETDAN MOLIALASHTIRISH USULLARI-MAHALLIY BUDJETLAR XARAJATLARI SAMARALI SARFLANISHINI TA'MINLASH OMILI. In MINTAQA IQTISODIYOTINI INVESTITSIYALASHNING MOLIVAVIY-HUQUQIY VA INNOVATSION JIHATLARI (pp. 551-553).
4. Ismoilova, S. Y. (2020). TEORETICHESKIYE ZADACHI OBESPECHENIYA EFFEKTIVNOGO ISPOLZOVANIYA MESTNIX BUDJETNIX SREDSTV. In MINTAQA IQTISODIYOTINI INVESTITSIYALASHNING MOLIVAVIY-HUQUQIY VA INNOVATSION JIHATLARI (pp. 250-258).
5. Ismoilova, S. Y., & Yusupova, D. I. (2020). VAJNIY FAKTOR OBESPECHENIYA EFFEKTIVNOGO ISPOLZOVANIYA RASHODOV MESTNIX BUDJETOV. In MINTAQA IQTISODIYOTINI INVESTITSIYALASHNING MOLIVAVIY-HUQUQIY VA INNOVATSION JIHATLARI (pp. 520-523).
6. Yakubovna, I. S. (2020). Ensuring effective use of local budget funds: what is the root cause of the problem?. *Arxivarius*, (7 (52)), 44-47.
7. Ismoilova, S. Y. (2019). Fiscal advantages and disadvantages of local government. *Obrazovaniye i nauka v Rossii i za rubejom*, (16), 165-170.
8. <https://openbudget.uz/ma'lumotlar>